



"O'ZBEKISTON SANOAT-QURILISH BANKI" AKSIYADORLIK TIJORAT BANKI
"UZBEK INDUSTRIAL AND CONSTRUCTION BANK" JOIN-STOCK COMMERCIAL BANK
АКЦИОНЕРНЫЙ КОММЕРЧЕСКИЙ БАНК "УЗБЕКСКИЙ ПРОМЫШЛЕННО-СТРОИТЕЛЬНЫЙ БАНК"

O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, 100000, Shahrizabz ko'chasi, 3-uy
E-mail: info@sqb.uz, web-site: www.sqb.uz

MAHSULOT PASPORTI

№ 202

2025 yil «26» «noyabr»



MAHSULOT PASPORTI —

Ish haqi uchun avtokredit mahsuloti

KREDIT MAHSULOTI

Mahsulot tavsifi va asosiy shartlari

Chakana biznes departamenti

1. Mahsulot/ submahsulot nomi:

Pasport versiyasi	Sana	Oxirgi qayta ko'rib chiqish sanasi	Rejalashtirilgan qayta ko'rib chiqish sanasi
1.1 Ish haqi uchun avtokredit mahsuloti			

2. Mahsulotning asosiy xususiyatlari

T/R	Ko'rsatkich	Ish haqi uchun avtokredit mahsuloti
1	Qarz oluvchi/Birgalikda qarz oluvchi	O'zbekiston Respublikasi fuqarosi
1.1	Qarz oluvchi/Birgalikda qarz oluvchining o'rtacha oylik daromadlari	O'rtacha oylik daromadni hisoblashda quyidagilarga asoslaniladi: - Ish beruvchi tomonidan tasdiqlangan ish haqi to'g'risidagi ma'lumotlar; - Pensiya to'lovlari miqdori to'g'risidagi ma'lumotlar; - Fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya badallari to'g'risidagi ma'lumotlar; - Bank hisobvaraqlariga tushgan daromadlari to'g'risidagi ma'lumotlardan; - Foizlar, dividendlar, mol-mulkni ijaraga berishdan olingan doimiy tarzidagi daromadlari to'g'risidagi ma'lumotlar; - Yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyati bo'yicha asosiy hisobvarag'i barcha pul tushumlarining 20 % (ma'lumot taqdim etilgan vaqtda hisobraqam "O'zsanoatqurilishbank" ATB tarmoqlarida bo'lishi zarur); <i>(Barcha taqdim etilgan ma'lumotlar kamida uzluksiz 6 oy muddatga bo'lishi zarur).</i>
1.2	Qarz oluvchi/Birgalikda qarz oluvchiga qo'yiladigan umumiy talablar	a) Kredit ajratilishi uchun murojaat qilingan kunda 18 yoshga to'lgan va kreditni oxirgi so'ndirish vaqtida 70 yoshdan (70 yosh ham kiradi) oshmagan bo'lishi. b) doimiy ish joyiga, shu jumladan kredit bo'yicha hisoblangan foizlarni va asosiy qarzni to'lov jadvaliga muvofiq har oyda to'lash uchun yetarli bo'lgan qonun hujjatlarida ta'qiqlanmagan va hujjatlar bilan tasdiqlangan boshqa daromad manbaiga ega bo'lishi.
1.3	Qarz oluvchi tomonidan taqdim etiladigan hujjatlar	1. Pasport yoki shaxsni tasdiqlovchi boshqa hujjat (Qarz oluvchi YaIDXPdan foydalangan holda raqamli shaklda taqdim etish huquqiga ega). Qarz oluvchi harbiy xizmatchi bo'lgan taqdirda uning harbiy guvohnomasini vizual identifikatsiyadan o'tkazgan holda, uning pasporti yoki shaxsini tasdiqlovchi boshqa hujjatdan nusxa olinadi; 2. daromadlari to'g'risidagi ma'lumotlar (rasmiy daromadlar bankning elektron dasturi orqali olinishi mumkin); 3. birlamchi bozordan (avval foydalanishda bo'lmagan) ishlab chiqaruvchi yoki realizatsiya qiluvchi subyekt (yuridik shaxs) bilan avtomobil sotib olish uchun tuzilgan oldi-sotdi shartnoma; Shuningdek, qonunchilikda ko'rsatilgan boshqa tegishli hujjatlar ham talab qilinishi mumkin.
1.4	Birgalikda qarz oluvchi tomonidan taqdim etiladigan hujjatlar	1. Pasport yoki shaxsni tasdiqlovchi boshqa hujjat (birgalikda qarz oluvchi YaIDXPdan foydalangan holda raqamli shaklda taqdim etish huquqiga ega). Birgalikda qarz oluvchi harbiy xizmatchi bo'lgan taqdirda uning harbiy guvohnomasini vizual identifikatsiyadan o'tkazgan holda, uning pasporti yoki shaxsini tasdiqlovchi boshqa hujjatdan nusxa olinadi; 2. Daromadlari to'g'risidagi ma'lumotlar/elektron ma'lumotlar (rasmiy daromadlar bankning elektron dasturi orqali olinishi mumkin); Shuningdek, qonunchilikda ko'rsatilgan boshqa tegishli hujjatlar ham talab qilinishi mumkin.

1.4.1	Qarz oluvchi/Birgalikda qarz oluvchining ilgari olingan kreditlari va berilgan kafilliklari bo'yicha qarzдорlikka yo'l qo'yiladimi?	Yo'l qo'yiladi, bunda mijozning kredit to'loviga layoqatlilik ko'rsatkichlari tekshiriladi.
1.4.2	Qarz oluvchi/Birgalikda qarz oluvchining muddati o'tgan qarzдорlikka yo'l qo'yiladimi?	Yo'l qo'yilmaydi.
1.4.3	Qarz oluvchi/Birgalikda qarz oluvchining kreditlari bo'yicha 90 kundan ortiq vaqt davomida to'lanmagan qarzдорlikka yo'l qo'yilganligi?	Tekshiriladi. Bunda qarz oluvchining avvalgi to'liq so'ndirilgan va joriy kreditlari bo'yicha 2 martadan ko'p 90 kundan ortiq muddatda to'lanmagan qarzдорlikka yo'l qo'yilganligi aniqlangan taqdirda kredit ajratish rad etiladi.
1.4.4	Qarz oluvchi/birgalikda qarz oluvchi uchun qarz yuki ko'rsatkichining yuqori chegarasi (K1/K2/K3)	-/ 50% /-
1.4.5	Birgalikda qarz oluvchilar soni	3 tagacha
2	Mahsulotning qo'llanilishi / maqsadi	Birlamchi bozordan (avval foydalanishda bo'lmagan) ishlab chiqaruvchi yoki realizatsiya qiluvchi subyekt (yuridik shaxs)lardan M1, M2 va N1 toifadagi avtotransport vositalarini sotib olish uchun ajratiladi. Bunda: - Ishlab chiqaruvchi va uning rasmiy dilerlaridan avtotransport vositasi sotib olinganda kredit mablag'i quyidagi ikki bosqichda ajratiladi: - Boshlang'ich badal mablag'lari o'tkazib berilgandan so'ng, oldi-sotdi shartnomasiga muvofiq dastlabki avans to'lovi miqdorigacha bo'lgan mablag'i o'tkazib beriladi; - oldi-sotdi shartnomasiga asosan avtotransport vositasi shartnoma summasi to'liq o'tkazib berilgan hollarda, avtotransport vositasining VIN raqami asosida taqiqqa qo'yilishi shart (avtotransport vositasi belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgandan so'ng, bankka garovga taqdim qilinishi lozim). <i>Avtotransport vositasi yetkazib berilganligi to'g'risida xabarnoma olingandan so'ng, avtotransport vositasining VIN raqami asosida taqiqqa qo'yiladi va qolgan yakuniy to'lov o'tkazib beriladi. (O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki huzuridagi garov reyestri davlat unitar korxonasining 2022-yil 1-dekabrda 44-12/203-sonli xatiga asosan VIN raqami asosida taqiqqa olinishi mumkin).</i> - Realizatsiya qiluvchi tashkilotdan mavjud (yetkazib berilgan) avtotransport vositasi sotib olinganda kredit mablag'i quyidagi ikki bosqichda ajratiladi: - Oldi-sotdi shartnomasiga muvofiq dastlab mijozning boshlang'ich badal mablag'lari o'tkazib beriladi; - sotib olinayotgan avtotransport vositasi belgilangan tartibda bankka VIN raqami asosida taqiqqa qo'yilgandan so'ng qolgan yakuniy to'lov o'tkazib beriladi (avtotransport vositasi belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgandan so'ng, bankka garovga taqdim qilinishi lozim). Mazkur shartlar mijoz bilan tuzilgan kredit shartnomasining tegishli bandiga kiritilishi lozim.

2.1	Pul birligi	So'm					
2.2	Maksimal imtiyozli davr	3 oygacha (<i>differensial to'lov jadvalida</i>)					
2.3	To'lov jadvali	“differensial/annuitet”					
2.4	Minimal boshlang'ich badal miqdori	Oldi sotdi shartnomasi summasining kamida 25 foizi.					
2.5	Kredit muddati	6 oygacha	12 oygacha	24 oygacha	36 oygacha	48 oygacha	60 oygacha
2.6	Kredit foiz stavkasi	20%	21%	22%	23%	23%	24%
2.7	Kreditning eng ko'p miqdori	800,0 mln.so'mgacha.					
2.8	Foizni hisoblashning sharti – o'zgarmas yoki o'zgaruvchi	O'zgarmas					
2.9	Mahsulotni olish usuli	Oldi-sotdi shartnomaga asosan ishlab chiqaruvchi va uning rasmiy dilerlari yoki realizatsiya qiluvchi yuridik shaxsning bankdagi hisobvarag'iga pul o'tkazish yo'li bilan. Mijoz xohishiga ko'ra kredit mablag'lari oldi-sotdi shartnomasiga muvofiq bosqichma-bosqich ajratilishi mumkin.					
2.11	Kredit qoplanishi	Kreditning garovga nisbati ko'rsatkichi miqdori 75 foiz (garov ta'minot miqdori 133,3 foiz) dan oshmasligi lozim.					
3	Ta'minotga talablar	Ishlab chiqaruvchi va uning rasmiy dilerlaridan avtotransport vositasi sotib olingan hollarda — kredit hisobiga sotib olinadigan avtotransport vositasi garovga qabul qilinguniga qadar kredit qaytmaslik xatarini sug'urta qilinganlik bo'yicha sug'urta polisi taqdim qilinadi (avtomobil yetkazib berilgandan so'ng garovga olinishi lozim). Realizatsiya qiluvchi norasmiy diler tashkilotdan mavjud (yetkazib berilgan) avtotransport vositasi sotib olingan hollarda – kredit hisobiga sotib olinadigan avtotransport vositasi garovga qabul qilinguniga qadar kredit qaytmaslik xatarini sug'urta qilinganlik bo'yicha sug'urta polisi taqdim qilinadi (kredit hisobiga sotib olinadigan avtotransport vositasi qarz oluvchi nomiga rasmiylashtirilib, davlat ro'yxatidan o'tkazilgandan so'ng belgilangan tartibda bankka garovga taqdim qilinishi lozim. Bunda, kredit ajratilgan kundan boshlab kreditning to'liq muddatiga VIN raqami asosida garov sug'urtasi qilinishi shart. (VIN raqami asosida taqiqqa olinmasdan kredit ajratilishi mumkin emas) Garov ta'minoti yetmagan qismiga kredit qaytarmaslik xatarini sug'urta qilinganlik bo'yicha sug'urta polisi taqdim etilishi mumkin.					
3.1	Sug'urta polisi muddati	Sug'urta shartnomasi va polisi kreditning to'liq muddatiga tuziladi.					
4	Moliyalashtirish manbai	Bankning o'z mablag'i va jalb qilingan mablag'lar hisobidan					
5	Qo'shimcha shartlar	1. Kredit bo'yicha andarrayterning ijobiy qarori qabul qilingandan so'ng, mijoz tomonidan boshlang'ich badal mablag'lari “Kafolat-3” nomli milliy valyutadagi jamg'arma omonatiga shakllantiriladi. Bunda, qarz oluvchi tomonidan boshlang'ich badal mablag'lari avtomobil oldi-sotdi shartnomasiga muvofiq to'g'ridan-to'g'ri sotuvchi hisobraqamiga o'tkazib berilgan hollarda, pul mablag'lari o'tkazilganligini tasdiqlovchi hujjat ilova qilinadi. Boshlang'ich badal mablag'lari sotuvchi hisobraqamiga o'tkazilib, VIN raqami asosida taqiqqa olingandan so'ng kredit ajratilishi lozim. Kredit mablag'lari hisobiga sotib olinadigan avtotransport vositasi bojxona to'lovlari (QQS) to'lanishi lozim bo'lgan avtotransport vositasi bo'lsa, avtotransport vositalarini realizatsiya qiluvchi tashkilot tomonidan ushbu avtotransport vositasi davlat bojxona deklaratsiyasi (IM-40) o'rnatilgan tartibda rasmiylashtirilgan bo'lishi va sotib oluvchi (qarz oluvchi)ga hisob faktura ma'lumotnomasi asosida rasmiylashtirilishi lozim.					
6	Mahsulot bo'yicha cheklovlar	Quyidagi hollarda kredit mahsuloti pasporti bo'yicha belgilangan limitdan oshgan taqdirda kredit mahsuloti Risk menejment departamenti					

		tomonidan to'xtatiladi: - Kredit mahsuloti pasporti bo'yicha 30 kundan oshgan muddati o'tgan kreditlar hajmi jami kredit mahsulotining 8% dan oshmasligi (Bank va BXO/BXM/Mijoz menejerlar kesimida); - Kredit mahsuloti pasporti bo'yicha muammoli (NPL) kreditlar hajmi jami kredit mahsulotining 3% dan oshmasligi (Bank va BXO/BXM kesimida); - Kredit mahsuloti pasporti bo'yicha Risk qiymati (COR) 3% oshmasligi.
7	Izohlar	1. Yangi avtomobil*-So'ngi 2 (joriy va o'tgan) kalendar yilida ishlab chiqarilgan avval foydalanishda bo'lmagan avtotransport vositasi. Kalendar yili: 1-yanvardan 31-dekabrgacha bo'lgan davr hisoblanadi. 2. Avtotransport vositalari turlari: - M1 toifasi — yo'lovchilarni tashish uchun foydalaniladigan va haydovchining o'rindig'idan tashqari o'rindiqlar soni 8 tadan oshmaydigan avtotransport vositalari; - M2 toifasi — yo'lovchilarni tashish uchun foydalaniladigan, haydovchining o'rindig'idan tashqari o'rindiqlar soni 8 tadan ortiq va eng katta vazni 5 t gacha bo'lgan avtotransport vositalari; - N1 toifasi — yuk tashish uchun mo'ljallangan, eng katta vazni 3,5 t dan oshmaydigan avtotransport vositalari.

3. Mahsulotning dolzarbligi

Rasmiy daromadga ega bankning ish haqi loyihasi mijozlariga birlamchi bozordan avtokreditga bo'lgan ehtiyojini qondirish.

4. Mijoz segmenti

a. Ushbu mahsulotning maqsadli auditoriyasini tavsiflang (maqsadli demografik va ijtimoiy profil): barcha segmentlar, jumladan avtokredit uchun ehtiyoji bo'lgan daromadi yetarli bo'lgan mehnatga layoqatli mijozlar;

b. ushbu segmentni belgilaydigan asosiy xususiyatlar qanday: Avtokredit uchun doimiy va yangi mijozlar.

5. Mahsulotning moliyaviy prognozi.

Ko'rsatkichlar	Tavsif
Standart risk xarajatlari (COR)	2,2%
OPEX	0,6%
Transfer stavkasi (FTP)	16,3% — 20%
Sotib olish va sotish narxlari o'rtasidagi farq (Bid-Ask)	
Shartnomaviy stavka	20% — 24%
Kredit muddati	5 yil
Bank Marjasi	0,7% — 1,2%

6. Bog'liq bo'lgan sub-mahsulot turlarining tavsifi

Avtokreditdan foydalangan mijozlarimiz kreditni to'lash va uni mustaqil monitoring qilib borishi uchun "SQB mobile" mobil ilovasini mobil qurilmasiga yuklab olishi hamda ilova orqali bankimizning barcha onlayn xizmatlaridan foydalanishi, jumladan kommunal to'lovlarini to'lashda, kredit va omonat turlaridan foydalanishlari mumkin.

7. Mahsulot riskini baholash

№	Risk turi	Risk darajasi	Oldini olish choralari
1	Kredit riski (mijoz qarzni)	O'rta	- Mijoz daromad manbasini aniqlik bilan tekshirish

	o'z vaqtida to'lamasligi)		- Ish haqi loyihasi ishtirokchilari uchun imtiyozli shartlar - Avtomobil garovi VIN orqali Garov reyestrda taqiq ostida bo'lishini nazorat qilish; - Qo'shimcha kafolat yoki sug'urta talab qilish
2	Operatsion risk (VIN raqami asosida taqiqsiz kredit ajratilishi, Anderrayter xatoliklari, sug'urta polisining noto'g'ri muddati)	Yuqori	- VIN asosida taqiq tizimini majburiy tekshirish - Avtomobil davlat ro'yxatidan o'tkazilganidan keyin avtomobilni garovga olish - Anderrayter qarorlarini ikki martali tekshirish mexanizmi yo'lga qo'yish - Sug'urta polisi muddatini kredit shartnomasiga muvofiqligini tekshirish
3	Firibgarlik riski (soxta hujjatlar, daromadni yashirish, garovni sotish)	Yuqori	- Mijoz ma'lumotlarini ichki va tashqi axborot bazalari orqali tekshirish - VIN raqami asosida garov reyestrda taqiq qo'yish
4	Bozor riski (avtomobil bahosining pasayishi, talabning o'zgarishi)	Past	- Lizing va avtokredit bozoridagi narx dinamikasini muntazam kuzatib borish - Kredit miqdorini bozor bahosining 75–80% gacha cheklash - Avtomobil qiymatini qayta baholash tizimini joriy etish
5	Yuridik risk (shartnoma xatolari, huquqiy nizolar)	O'rta	- Barcha shartnomalarni Yuridik departament bilan kelishish - Avtomobil garov huquqini to'g'ri rasmiylashtirish
6	Reputatsion risk (mijoz norozi bo'lishi, shaffoflik yetishmasligi)	Past	- Mijozlar uchun barcha shartlarni ochiq e'lon qilish - Qarz yukini tushuntirishda shaffoflikni ta'minlash - Shikoyat va murojaatlarga tezkor javob berish tizimini takomillashtirish

8. Axborot texnologiyalaridan foydalanish imkoniyati.

	Mavjudligi va holati	Tizimlarning kelajakdagi imkoniyatlari va eng yaqin modifikatsiyalari (sozlashlari)ga qo'yiladigan talablar
Alternativ sotuv kanallari	Mavjud	
Internet – banking	Mavjud	
Mobil dastur	Mavjud	
SMS xabarnomalari	Mavjud	
CRM	Mavjud	
Tahlil vositalari	Mavjud	
Firibgarlikka qarshi harakatlar	Mavjud	
Garovni boshqarish tizimi	Mavjud	
Qarzlarni boshqarish tizimi	Mavjud	
Qarorlarni qabul qilish tizimi	Mavjud	

9. Kredit siyosati (kredit mahsulotlari uchun)

Anderrayting xususiyatlari

Qaror qabul qilish usuli	Anderrayting yoki Yagona oyna kredit konveyrida avtomatik qaror qabul qilish tizimi orqali.
Skoring modelining mavjudligi	Mavjud
Kredit siyosatining xususiyatlari	Bankning amaldagi kredit siyosatiga zid emas
Tasdiqlash / rad etishning rejalashtirilgan ulushi, % da	-

Garov ta'minoti qoplanishiga qo'yiladigan talablar	Ta'minotning miqdori kredit summasining 133,3 foizidan kam bo'lmasligi lozim.
Qaror qabul qilish tezligi (TTY/TTC)	-
Ajratish usuli va kanali	Pul ko'chirish yo'li bilan, sotuv kanallari orqali

10. Mahsulot bo'yicha biznes jarayon kartasi (sxemasi).

Kredit mahsuloti bo'yicha biznes jarayon 1-ilovaga muvofiq;

11. Mahsulot bo'yicha shartnoma loyihasi.

Kredit mahsuloti bo'yicha kredit shartnoma 2-ilovaga muvofiq;

12. Mahsulot bo'yicha kreditlash shartlari (stop-faktorlar, qiymatlar).

Kredit mahsuloti bo'yicha stop faktorlar 3-ilovaga muvofiq.

13. Mahsulot bo'yicha moliyaviy model.

Kredit mahsuloti bo'yicha moliyaviy model 4-ilovaga muvofiq.

Biznes Bosh direktori v.b.:



T.Norov

kelishuvchilar: Sh.Bekmurzayev, S.Sanjarov, S.Ikramov, D.Shamirzayev, A.Mananov, X.Abdullayev, T.Rapiyev, M.Nabiyev, D.Shayakubov, A.Omonov, B.Davirov, A.Shodiyev, D.Sadirov, A.Kamalov, A.Yoqubjonov, A.Xujamuratov

<https://hujjat.sqb.uz/?pin=mB53hE47&id=781d41cf-db5d-4217-8204-2aec70f5c9ee>